

## GEMORRAGIK VASKULIT KASALLIGIDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARINING ASSORTIMENT TAHLILI

Rahimova D.I.

Yusupova Z.K.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: rakhimovadiora@gmail.com tel:(90)8707100

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12542892>

**Kirish.** Gemorragik vaskulit mayda qon tomirlar devorining yallig'lanishi va uning allergik shikastlanishi sababli tromblar hosil bo'lishi bilan kechadigan kasallik. Kasallik asoratlari kuchli bo'lganligi sababli unda qo'llaniladigan dori vositalariga talab kuchaymoqda.

**Tadqiqotning maqsadi.** 2021-2023 yillarda gemorragik vaskulit kasalligida qo'llaniladigan dori vositalarini ro'yxatdan o'tishini tahlil qilish.

**Usul va uslublar:** Gemorragik vaskulit kasalligida qo'llaniladigan dori vositalarining marketing tahlili olib borildi.

**Natija.** Jadvalda gemorragik vaskulit kasalligida qo'llaniladigan dori vositalarini ro'yxatdan o'tishini sefolasporin qator antibiotiklar, penisillin qator antibiotiklar, antikoagulyantlar, antiallergik preparatlar va kortikosteroid farmakoterapevtik guruhlar bo'yicha 2021 yil ma'lumotlari asosida tahlil qilganimizda, sefolasporin qator antibiotiklar guruhi umumiy 344 tani tashkil qildi, shundan eng ko'pi xorijiy mamlakatlarda ekanligi aniqlandi. 2022 yil ma'lumotlari asosida tahlil qilganimizda esa sefolasporin qator antibiotiklar guruhi umumiy 416tani tashkil qildi, shundan eng yuqori ko'rsatkich 318 ta xorijiy mamlakatlar ulushiga to'g'ri keldi. Penisillin qator antibiotiklari esa umumiy hisobda 183 tani tashkil qilib, bunda 101ta preparat xorij firmalari tomonidan ishlab chiqarilishi ma'lum boldi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan esa eng ko'p antiallergik preparatlar 68ta, penisillin qator antibiotiklar 67ta va sefolasporin qator antibiotiklar 51tani tashkil qilishi aniqlandi. 2023 yil ma'lumotlari asosida tahlil qilganimizda antiallergic preparatlar umumiy 204 tani tashkil qildi, shundan eng yuqori ko'rsatkich xorijiy va mahalliy mamlakatlar ulushiga to'g'ri keldi. Kortikosteroidlar esa umumiy hisobda 122 tani tashkil qilib, shundan 6 tasi 2023 yilda ro'yxatdan o'tkazilgani aniqlandi.

Farmako- terapevtik guruh nomi	Mahalliy						MDH						Horijiy								
	2021		2022		2023		2021		2022		2023		2021		2022		2023				
	soni	n otkazilgan	soni	n otkazilgan	soni	n otkazilgan	soni	n otkazilgan	soni	n otkazilgan	soni	n otkazilgan	soni	n otkazilgan	soni	n otkazilgan	soni	n otkazilgan			
Sefolasporin qator antibiotiklar	46	-	51	6	49	2	45	-	47	14	45	2	25	3	-	31	8	57	29	6	13
Penisillin qator antibiotiklar	65	-	67	7	66	1	23	-	15	5	14	-	94	-	10	1	19	88	4	4	

Antikoagulyantlar	8	-	20	3	20	-	16	-	16	5	13	-	37	-	59	18	56	3
Antiallergik preparatlar	70	-	68	14	69	1	35	-	33	5	30	-	120	-	120	20	105	1
Kortikosteroidlar	4	-	40	7	12	-	11	-	35	7	14	2	77	-	118	18	96	4

**Xulosa.** Gemorragik vaskulit kasalligida qo'llaniladigan dori vositalari ishlab chiqaruvchilari bo'yicha tahlili O'zbekiston Respublikasi Davlat Reestridan 2021- 2023 yillar davomida ro'yxatdan o'tish ko'rsatkichlari ifodalandi. Tahlilga ko'ra, eng ko'p ro'yxatdan o'tish ko'rsatkichi sefalasporin qator antibiotiklari 1150 ta ulardan 94 tasi va antiallergik preparatlar 650 ta va ulardan 41 tasi shu 3 yilda umumiy hisobda ro'yhatdan o'tganligi aniqlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Антипова В.Н. Системные васкулиты: наблюдение из практики //Современная ревматология. — 2015. — т.9, №3. — С. 26—29
2. Котова И. С., Шишева Р. А. Ангииты кожи. – Благовещенск, 2013. – 48с